

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Oktabr, 2024-Yil

MANG'ITLAR DAVRIDAGI IJTIMOIY- IQTISODIY AHVOL

Rahmonov Oybek Ravshan o‘g‘li

Romitan tumani 18- maktab o‘qituvchisi

E- Pochta: buxara152@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13925833>

Annotatsiya. Ushbu tezisda Mang‘itlar sulolasining o‘z zamondagi ijtimoiy- iqtisodiy ahvoli, Mang‘itlar davrida aholining ijtimoiy- iqtisodiy ahvoli, bozorlardagi ahvol, hunarmandlar va davlat ishchilarining ijtimoiy- iqtisodiy ahvoli haqida batafsil ma’lumot keltirib o‘tilgan.

Kalit so`zlar: Mang‘itlar sulolasi, mang‘itlar davrida ijtimoiy- iqtisodiy ahvoli, aholining iqtisodiy ahvoli, mamalakat iqtisodi.

СОТСИАЛНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ПЕРИОД ДОВЕРИЯ

Аннотацияю В данной диссертационной работе даются подробные сведения о соотношении мангитской династии в свое время, соотношении населения в мангитский период, положении на рынках, соотношении ремесленников. и государственные службы.

Ключевые слова: Мангитская династия, соотношение экономическое О положение в эпоху Мангита, экономическое положение населения, экономика страны.

XIX asrda amirlilik chegarasi Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo viloyati Tojikistonnining Panjikent Hisor vodiysi, Xo‘jand, O‘ratepa viloyatlari, Zarafshon daryosining yuqori oqimi hududlarini, hozirgi Afg‘onistonning bir qismi, Turkmanistonning Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan qismi, Qozog‘istonning Turkmanistongacha bo‘lgan barcha hududlarini o‘z ichiga oladi va 200 ming kmni tashkil etadi. Binobarin, amirlilik hududi Ashtarkoniylar davridagiga nisbatan bir necha martaga kengayadi. XVIII asrning ikkinchi yarimdan boshlab amirlilik iqtisodiyotida rivojlanish yuz bergenligi, o‘z navbatida, aholi sonining oshishiga sabab bo‘ldi. XIX asrning birinchi yarmida amirlilik aholisi 2 million kishidan iborat edi. Aholing aksariyat qismini o‘zbeklar tashkil etgan.

Amrlikda o‘zbeklardan tashqari tojik, turkman, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, fors, arab, yahudiy va boshqa xalqlar yashashgan. Aholining katta qismi o‘troq hayot kechirgan. Aholining ijtimoiy tarkibini hukumron zodagonlar, ulamolar, diniy va dunyoviy muassasalar xizmatchilari, savdogarlar, hunarmand va dehqonlar tashkil etgan. Amirlilik iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq edi. 90 foiz aholi shu tarmoqda mehnat qilardi. Sug‘oriladigan yerkarning 75 foiziga paxta ekilgan. Qolgan yerkarda bog‘, poliz va sabzavot mahsulotlari tog‘larda esa butun Osiyoda mashhur tog‘ pistasi yetishtirilgan. Chorvachilik ham juda rivojlangan. Uning asosini

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Oktabr, 2024-Yil

qo‘ychilik tashkil etgan. Mavlakat yaylovlardida 12 million qo‘y boqilar edi. Ayniqsa, husundor jingalak, qimmtabohi teri beradigan qorako‘l qo‘ychiligi nihoyatda rivojlangan edi. “Qorako‘l qo‘ylari” deb ataladigan qo‘yning vatani Qorako‘lbekligi bo‘lgan.

O‘rta Osiyo sharoitida hamma zamonlarda sun’iy sug‘orishlarsiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirib bo‘lmagan.Umuman olganda barcha sulolalarda qishloq xo‘jaligi sun’iy sug‘orishga asoslangan. Mang‘itlar davrida mehnat qurollari nihoyatda sodda bo‘lgan. Omoch asosiy dehqonchilik quroli hisoblangan. Ot, ho‘kiz, tuyu, eshak dehqonning suyanchig‘i hisoblangan. Amirlikda yer egaligining davlat, mulk, vaqf shakllari saqlanib qolgan. Yerlarning suvsiz dasht yerlari ko‘chmanchi aholiga bo‘lib berilgan bo‘lib ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga malum miqdorda soliq to‘lagan. Davlat yerlaring boshqa bir qismi hukumron sulola a‘zolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun suyurg‘ol tarzida bo‘lib berilgan. Lekin mang‘itlar hukumronligi davrida suyurg‘ol egalari Ashtarkoniylar davridagidek mavqedan mahrum etildi. Suyurg‘ol egasi davlat xazinasiga xiroj to‘lashi hamda oliy hukumdorning chaqirig‘iga ko‘ra, zarur holatlarda o‘z qoracherigi bilan ishtirok etishi lozim edi.Mang‘itlar davrida tanho in’om etish kuchaydi. Tanhodor yerga emas, mansabining darajasiga qarab shu yerdan olinadigan soliqning ma’lum qismiga egalik qilar edi. Xazinaga eng ko‘p soliq ham shu yerdan tushar edi.Vaqf yerlarimasjid, madrasa, xonaqoh, maktabxona va maqbaralar uchun ajratiladigan yerlar edi. Bu yerlar musodara qilingan davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga kelar edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf xarajatlari, shuningdek talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavvali tasarruf etishi belgilab qo‘ylgan edi.

Mang‘itlar davrida soliqlar nihoyatda ko‘payib ketganidan, mamlakat aholisi qiyin va og‘ir hayot kechirardi. Hatto aholi qish uchun ham don dun to‘plashga qiyinalar edi. Ammo xalq benohoya katta kuch bilan ishlardi. Buning sababi esa soliqlarni to‘lash uchun pul jamlash edi. Afsuski bu kabi og‘ir soliqlar xalqning tinka madorini quritdi. Shuning uchun ham bir qancha qo‘zga‘alonlar amalga oshirildi oddiy xalq tarafidan. Bulardan biri 1821—25- yillarda amir Haydarning soliq siyosatiga qarshi xitoy-qipchoqlar ko‘targan Miyonqol qo‘zg’oloni edi. Bu qo‘zg‘oltoni juda katta qiyinchilik bilan bostirdilar.

To‘g‘ri sulola davrida aholining ijtimoiy ahvoli yaxshi bo‘lmagan ammo, amir Haydar davrida ilm-fanga bo‘lgan e’tibor nihoyatda yuqorilab, aholiga ta’lim berishga katta e’tibor qaratilgan.

Ahmad Donishning yozishicha, Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Haydar madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul,

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Oktabr, 2024-Yil

Qobul va boshqa shaharlardan ko'plab qo'lyozma kitoblarni oldirgan. Uning o'zi muntazam ravishda saboq bergan, madrasalarda dars o'tgan. Haydar «al-Fa-void al-alfiya» nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan.

Uning hukmronligi davrida Buxoroda Chor minor va Xalifa Nyayozqul madrasasi (1807), masjidlar, xonaqohlar, hammomlar qurilgan, Xalfa Xudoydod majmuasi qurilishi davom ettirilgan. Buxoroda Haydar onasiga atab maxsus Madrasa, Qarshida Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasini ham qurdirgan.

Mang'itlar sulolasiga nafaqatta'lim sohasida balki adabiyot sohasida ham bir qator yangiliklar qilgan va adabiyotni rivojlantirgandir. Mang'itlar davrida tarix va adabiyot sohasida juda mashxur asarlar yozib qoldirilgan, hatto amirlar orasidan ham adabiyot bilan shug'ullanganlari mavjud bo'lgan.¹

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligi Mang'itlar sulolasiga davrida ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan anchayin og'ir ahvolga tushdi. Xalqning soliqlardan qiynalishi, savdo- sotiqning rivoji va shu bilan birga soliqlarning yanada oshishi xalq noroziliklariga ham sabab bo'ldi. Shuning bilan bir qatorda mamlakatda ta'lif, adabiyot va san'atga ham katta e'tibor qaratildi, amir Haydar davrida o'z cho'qqisiga yetdi.

REFERENCES

1. Raxmatov M. Mang'itlar urug'i tarixidan.// O'zbekiston tarixi èsh tadqiqotchilar nigohida. T.: —O'zbekiston.2010.27-bet.
2. Маджлисов А.Аграрные отношения в Восточной Бухаре XIX-нач. XX в. Душанбе- Алма-Ата: Ирфон.1967. С-53.
3. Rajabov K. Xasanov F. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi (XIX asr o'rtalari-1917 yil fevral). О'зМЕ. 12-jild. 159-164-betlar.
4. Кисляков Н. А Патриархально-феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX-начале XX вв. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1962. - С. 43
5. A.Donish Navodirul vaqoe. T: «Fan», 1964, 232-233-betlar.

& RESEARCH

¹ A.Donish Nvodir- ul vaqoye. T: 1964,232-233- betlar.